
15 OKTYABR – XALQARO QISHLOQ AYOLLARI KUNI



Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 2007 yil 18 dekabrda yig'ilishida qishloq ayollarining, shu jumladan, tub aholining qishloq xo'jaligini va qishloq tumanlarini rivojlantirishni jadallashtirish, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash va qishloq joylarda kambag'allikni yo'qotishdagi roli tan olinib, 15 oktyabr - Xalqaro qishloq ayollari kuni sifatida rasman e'lon qilingan. Ushbu bayram ilk marta 2008 yil 15 oktyabrda nishonlangan. Bugungi kunda dunyoning ko'plab davlatlarida keng nishonlanib kelinmoqda.

Qishloqdagi ayollar uy-ro'zg'or ishlari, asosiy xizmat vazifalaridan tashqari tomorqalarida qishloq xo'jaligi ishlari bilan shug'ullanadilar, farzandlarini mehnatga o'rgatadilar. Shu bois, ushbu bayram dunyo davlatlaridagi mehnatkash, bag'ri keng va fidoiy qishloq ayollariga bag'ishlangan.



Xalqaro qishloq ayollari kuni munosabati bilan Sohibkor mahalla fuqarolar yig'ini hududidagi Yuqori o'qchi mahallasida mehnat faxriylari, uyushmagan uy bekalari, notinch oila vakillari ishtirokida "Oilam mening baxtim" mavzusida suhbat tashkil etildi. Ko'p yillar samarali mehnat qilib, hozirda keksalik gashtini surayotgan onaxonlarga va xotin-qizlarga ehtirom ko'rsatildi.

Qo'shtepa tumani hokimligi

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook,](#)

2021-10-15 20:44:45